

ESHQOBIL SHUKUR IJODIDA AVTOPSIXOLOGIK LIRIKA VA LIRIK QAHRAMON TABIATI

MELIMURODOVA MAFTUNA SHUHRATOVNA

DTPI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI I BOSQICH MAGISTRANTI

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli shoir Eshqobil Shukur ijod namunalari asosida avtopsixologik lirika tahlilga olinib, unda lirika lirik qahramon tabiati yoritiladi.

Kalit so'zlar: lirika, avtopsixologik lirika, lirik qahramon, meditative lirika.

Lirika yunoncha – “ cholg'u asbobi ” degan ma'noni anglatadi. Lirika adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan tur. Lirikaning asosiy belgilaridan biri uning his-tuyg'ularini tasvirlanishi. Lirikaning asosiy obrazi – lirik qahramondir. Lirik qahramon shoir kechinmalarida yoki o'zganing ruhiyati bilan ham ifodalaniladi. Shoir va lirik qahramon tabiatini munosabatini inobatga olib lirika ikki : avtopsixologik lirika va ijroviy lirikaga ajraladi.

Avtopsixologik lirika deyilganda lirik qahramon va shoir tabiati, shaxsiyati mos tushgan, lirik qahramon va shoir bir-biriga yaqin kechinmalari bo'lgan she'rlar tushuniladi. Avtopsixologik she'rlarda shoir o'z-o'ziga ya'ni yuragiga, qalbiga murojaat qiladi. Eshqobil Shukur “ Xavotir ” nomli she'rida:

Ehtimol, kulgili tuyular sizga,
Endi men qo'rqmayman desam o'limdan...
To qaytib bo'lmaskan o'tilgan izga
Boshqa bir jasorat kelmas qo'limdan.

Shoir ushbu she'rida vaqtni ortga qaytarib bo'lmashligini uning qalb torlarini chertib unga armon cheksiz iztirob keltirdi. Chunki shoir bosilgan izga qaytolmasligini anglab o'limga qarshi jasorat topdi, u o'limdan qo'rqmasligini barilla aytdi va u bundan kulguda qolishini his qildi. She'ning davomida shoir uni bu mardlikka boshlagan sabablarni keltirib:

Jim turdim haqiqat xo'rlanganida
Mazlum ezilganda yuzimni burdim.
Madhiyalar yozdi, yolg'on sha'niga,
Qilichlar qoshida qoshday egildim.

Ushbu jumladan ko'rinib turibdi, shoir qalbini ezayotgan iztirob aynan o'sha lahzalarni unitolmaslik va o'zgartirolmaslikdir. So'nggi misralarda shoir havotiri o'zgardi:

Endi o'limimdan tilamam shavqat
Endi men o'limning qoshida botir.

Ortimda qolajak hayotdan faqat
Xavotir olaman , qattiq xavotir...

Shoir endi kelajakdan xavotirda, u o'limning qoshida botir ammo bosgan izni ortga qaytarib bo'lmaganidek kelajakni ham ko'rib bo'lmaydi. U ortidan qoladigan avlod ham qilichlar qoshida egilishini xohlamaydi, shunday o'ylar uni ichini kemirmoqda.

Avtopsixologik she'rlarning bir ko'rinishi sifatida mediativ lirikani ham olishimiz mumkin. Bunda shoir ko'nglidan kechadigan bir lahzalik kechinmalarni tushuntirish va ifodalash mushkul bo'lgan tuyg'ular ifodalanadi. Eshqobil Shukur ijodidan ushbu she'rni misol qilamiz:

Sirlashadi dala va shamol
Ortimdan jim ergashar daraxt.
Farishtaday ko'rsatar jamol,
Qo'l ushlashgib qayg'u bilan baxt.

Sirlashadi dala va shamol,
Parishonman, juda parishon.
Uchrashuvga kechikdi xayol
Bu nedandir ichikdi vijdon.

O'zin oqlab qoralab ko'nglim
Tun kechaga dardini yorar.
Qorong'ulik oralab ko'nglim
Yaratganni o'rganib borar.

2011-yil

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, avtopsixologik lirika Eshqobil Shukur ijodida juda go'zal ifodasini togan. Shoirning she'riyatiga nazar solar ekansiz, unda o'z ichki kechinmalariningizni, ruhiy iztirob yoki xirjamligingizni topasiz go'yo. Shu sababli ham shoir she'rlari har doim o'z muhlislariga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dilmurod Qur'onov "Adabiyotshunoslikka kirish " asari
2. Eshqobi Shukur " Nasoyim ul muhabbatga sayr" 2005-yil
3. Bo'riyeva Feruza " Hozirgi o'zbek adabiyotida janrlar va shakllar rang barangligi" dissertatsiya ishi Samarqand-2023
4. www.ziyo.net.com sayti manbalari